

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TASVIRIY FAOLIYAT  
TURLARI BO'YICHA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY  
TALABLAR DARAJASIDA JIHOZLANISH BO'YICHA YANGICHA  
YO'NALISHLARDAN FOYDALANISH

Boltayeva Manzura Boyturayevna

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lism yo'naliishi

2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Zamonaviy mutaxassislarning asosiy g'oyalardan biri - pedagogika fanlarining ta'lim ishlarini olib borishda ta'lim jarayonlarining yangi usullarini, to'liq tendentsiyalar, maqbul ehtiyojlar, ota-onalarning bolalar kelajagiga yo'nalgan ehtiyojlarini o'rganish zaruriyatini ko'rsatadi. Maktabgacha ta'limda innovatsiyalar, rejada ko'rsatilgan ta'lim an'analarini eksperimental va ijodiy tushunish bo'yicha yangi g'oyalalar ishlab chiqishni talab etadi. Shu sababli, hatto ko'p yillik amaliyotga va tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilar ham faoliyatlari jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida izchil innovatsiyalarini amalga oshirishni ta'minlash biroz qiyinchilikka uchrayapti. Ushbu maqolada, maktabgacha ta'lim tizimida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish va zamonaviy jihozlar, shart-sharoitlarni yanada kengaytirish haqida fikr va mulohazalar qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy tajribalar, zamonaviy jihozlar, ta'lim tarbiya, , takomillashuv, tasviriy faoliyat, harakat, innovatsion g'oyalalar, innovatsion texnologiyalar, bolalar ijodkorligi,

## KIRISH

Maktabgacha ta'lim mutaxassislari ta'lim tizimida innovatsion g'oyalarni yaratish va joriy etish zamonaviy bolalar bog'chasini rivojlantirish uchun zaruriy shartdir degan fikrga kelishib olishgan. Ammo bu nechog'lik amalda o'z isbotini topmoqda . Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatlari bilan tanishar ekanmiz hali hanuz eski qarashlardan qutila olmayotgan ba'zi bir holatlarni ham uchratish mumkin. Hozirgi davr talabidan kelib chiqsak, avvalgi maktabgacha ta'lim tashkiloti tubdan o'zgarib , bolalarga qarab turuvchi tashkilot emas, balki zamonaviy talab darajasida rivojlanib , mukammal, yoshi va rivojlanish bosqichlarida uzviylik va izchillikni to'g'ri tashkil etayotgan haqiqiy ta'lim maskani bo'lib kelmoqda. Ta'lim jarayonlariga bir nazar solsak , avvalgi davrlarga nisbatan ancha o'sish bor, ammo bu kam. Chunki o'sish , yangilanish va rivojlanish hozir yilda emas , balki kunda bo'lislini zamon talab etmoqda. Bunday kun sayin yangiliklar bilan boyib borish rivojlanishning keyingi yo'nalishlarini belgilab beradi. O'quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, bolalar imkoniyatlari va psixofiziologik yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, maktabgacha ta'lim tarbiyachilar tomonidan har doim ijobiy imkoniyatlarni yaratib keladi. Bunda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini o'z faoliyatidagi yangi o'zgarishlarni osongina o'zgartiradilar. O'z navbatida, ushu tashabbus pedagogik mahooratni , ota-ona jamoatchiligi, bolalar bog'chasini, tarbiyalanuvchilarning oilalari bilan o'zaro ta'sir mexanizmlarini takomillashtirish imkonini beradi, hamda faoliyat uchun muhim sanaladi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bugungi kundagi qaysi sohada bo'lmasin innovatsion texnologiyalar nafaqat mumkin, balki ehtiyoj hamdir . Biroq, shuni yodda tutish kerakki, pedagogik texnologiyalar maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarining o'quv jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan bir nechta qat'iy talablarni o'z oldiga qo'yadi. Bularga quyidagilar kiradi:

Kontseptuallik,

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

Innovatsion g'oyaviylik,

Yangi tajribalar,

Zamon talablariga mos shart-sharoitlar,

O'quv jarayoni ma'lum ilmiy tushunchaga asoslanishi kerakligini anglatadi.

## TASVIRIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TALAB DARASIDA JIHOZLASH MASALALARI

Maktabgacha yoshi - bu bolaning atrofida dunyoni faol o'rganadigan davri hisoblanadi. . Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarining psixologik va jismoniy rivojlanish xususiyatlariga egadir. Yurishni o'rganganidan boshlab bola juda ko'p bilimlarni egallaydi, o'zining yangi dunyosini yaratadi, xonada, ko'chada, bolalar bog'chasida joylashgan narsalar va predmetlar bilan tanishadi. Turli narsalarni yig'ish, ularni o'rganish, mavzudan kelib chiqqan tovushlarni tinglash, bu ob'ektning qaysi fazilatlari va xususiyatlari borligini biladi. Ushbu davrda bolaning xotirasi , irodaviy xislatlari, onggi, jismoniy faoliyati jadal ravishda rivojlanadi. 5-6 yoshligida bola har bir yangi uchragan predmetlarini bilishga , u bilan tanishishga, uning xususiyatlari va kelib chiqishini bilishga qiziqadi.

Maktabgacha ta'lismi uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi hamda tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lismi tarbiyalanuvchilari davlat va nodavlat maktabgacha ta'lismi tashkilotlarida hamda oilada amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'limning maqsadi - bolalarni maktabdag'i o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Maktabgacha ta'lismi tashkilotida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish maktabgacha talim tashkiloti hamda shtatdagi tibbiyot xodimlari, shuningdek maktabgacha talim tashkilotiga biriktirilgan sog'liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ana shunday imkoniyatlar yaratilgan har qanday hududda ijodiy faoliyatni rivojlantirish, yangiliklar kiritish talabi olg'a surilmoqda . Maktabgacha ta'lismi sifatini oshirish, maktabgacha ta'lismi tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lismi-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lismi dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lismi muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo'yildi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lismi tashkilotlari faoliyati uchun yetarli sharoit yaratilmaganligi bois, binolar qarovsiz holga kelib, bo'shab yotganligi, ulardan samarali foydalanilmayotganligi tanqid qilinib, kelgusida barcha tashkilotlarning faoliyatini yangidan boshlash uchun shart-sharoitlar yaratildi. Bu tubdan isloh qilingan barcha yangiliklar bugungi kundagi maktabgacha ta'lismi tashkilotlari uchun tarixga aylandi.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lismi sohasida jahon talablariga javob bera oladigan yangiliklar kiritildi. Ammo chekka hududlarda hali ham jihozlanish darajalari ortda qolmoqda. Bu esa maktabgacha ta'lismi tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar o'rtaida tafovutni yuzaga keltiradi. Shu masalalar yuzasidan tegishli idoralar chekka hududlarda ham maktabgacha ta'lismi tashkilotlari faoliyatlari bilan chuqurroq tanishib , ularga amaliy yordam berish zaruriyatini tug'diradi. Mana shu muammolarni hisobga olgan holda hozirgi rivojlanish davriga javob bera olmayotgan maktabgacha ta'lismi tashkilotlarini topish va ularga shart –

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON,2024

sharoitlar yaratib berishni ko'zda tutmog'i lozim. Chunki zamon talablari darajasida jihozlangan , barcha shart-sharoitlar yaratilgan ta'lif maskanlarida tarbiyalanuvchilar cheklovlarisiz turli faoliyat bilan shug'llananish imkoniyatlariga ega bo'lishadi. Bu esa ta'lif sohasining poydevori hisoblangan maktabgacha ta'lif tashkilotlari faoliyatini yuzaga chiqaradi. Chunki eng buyuk kashfiyotlar albatta bolalarning kichik yosh davrlarida ilk kurtaklarini yozadi. Uni rivojlantirish va lozim shart-sharoitlarni yaratish buyuk kashfiyotlarga sabab bo'ladi.

## MUHOKAMA

Butun jahonda hozirgi globallashuv zamonida yaratilayotgan texnologiyalar va axborotlashtirish jarayonlarining rivojlanishi davrida maktabgacha ta'lifni isloh qilish, komil insonni tarbiyalash, ularga zamonaviy ta'lif berish masalalari birinchi navbatda hal qilinishi kerak bo'lgan muammo hisoblanadi. Shu sababli, maktabgacha ta'lifni isloh qilishda bolaning maktabga tayyorgarligi bilan belgilanuvchi ta'lif sifatmi oshirish muhim va zarurdir. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarda ta'lif sifatini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalarining kirib kelishi,boshqaruv, innovatsiya va axborot texnologiyalarini ta'lif-tarbiya jarayoniga joriy etish va keng foydalanish pedagogik jarayonlarga rahbarlik layoqatini oshirish muhimdir. Ushbu vazifani amalga oshirishda maktabgacha ta'lif tashkilotlari rahbar xodimlarining har biridan yuksak kasbiy salohiyat va insoniy sifatlarga ega bo'lish talab etiladi.

Pedagog-tarbiyachida kasbiy bilimdan tashqari, kasbiy mahorati ham muhim rol o'yнaydi. Ayniqsa Bolalarda tasviriy faoliyatga qiziqish nihoyatda katta bo'lganligi bois , tarbiyachidan kuchli bilim va mahorat talab etiladi. Pedagog bilimlarini amaliy qo'llashda doimo takomillashtirib borishi zarur. Maktabgacha ta'lif tashkiloti pedagog xodimlaridan keng bilimdonlik, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat, kompetentlik va ijodkorlik talab etiladi. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faqat nazariy emas balki bolalarni amaliyot bilan bog'lagan holda STEAM texnologiyalarini joriy etsa , bu ta'lif jarayonini tog'ri amalga oshirish yo'llarini bilsa , uning faoliyatida nihoyatda katta davr yaratiladi. Maktabgacha ta'lif tizimini tubdan isloh qilishda ta'lif jarayonning barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, bolalarda dunyoqarash, qobiliyatni, iqtidor kurtaklarini shakllantirish va ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan har qanday faoliyatga moyillik uyg'otishdan iborat.

Pedagog-tarbiyachining ko'p qirrali faoliyati va uning qobiliyati, ijodkor, kreativ, mahoratli va fidoiy bo'lishi hamda shogirdlami barkamol insonlar qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi muhim masalalardan biridir.

O'quv jarayonida bolalar faoliyati samaradorligining mezoni bilim va ko'nikmalami o'zlashtirish darajasi, kognitiv va amaliy muammolarni hal qilish usullarini egallash, rivojlanishdagi muvaffaqiyatlarning entensivligi hisoblanadi. Mamlakatimizda yosh avlodni intellektual, ma'naviy, axloqiy jihatdan barkamol shaxs etib tarbiyalash bilan birga ularni ilk yosh davridan boshlab kasb-hunarga yo'naltirish ham bugungi kunda dolzarb masalalardan sanaladi. Bunday holatlarda yana bir bor zamonaviy texnologiyalarga e'tiborimizni qaratamiz. Albatta maktabgacha ta'lif tashkilotlari hoh ilmiy, hoh ijodiy tomondan jihozlangan bo'lsin, uni amalda qo'llay olmasa , u yerda hech qachon yangilanish , o'sish bo'lmaydi. Shuning uchun maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilaridan katta mahorat , ijodkorlik, yangiliklar yaratuvchisi , yaratilgan yangiliklardan amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalari bo'lishi lozim Bizga ma'lumki rivojlangan mamlakatlarda bolalarni erta yoshlik davridan boshlab kasbga bo'lgan qiziqishlari shakllantirib boriladi. Bu esa ta'lif jarayonlarida

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

eng kata muvaffaqiyat hisoblanadi, chunki bolalar o'z oldiga maqsad qo'yib unga intiladi. Bu esa ta'lim jarayonining oldinga qarab o'sib, rivojlanayotganidan darak beradi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yaqin o'tkan yillarda zamonaviy innovatsion IT texnologiyasi dominant pozitsiyani egallash maktabgacha ta'linda to'g'ridan-to'g'ri o'quv-uslubiy ishlarni tashkil etish uchun keng qo'llaniladi. O'qituvchilar, kompyuterlar savodxonligini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan, o'quvchilar uchun keng imkoniyatlarni ochishi mumkin va bu faqat taqdimotlar va o'qitish roliklarini namoyish etish bilan cheklanmaydi. Pedagog hodimlarning bilimli bo'lishi, yaratilgan shart-sharoitlardan oqilona foydalana olishi, zamonaviy jihozlarning kerakligi va ulardan unumli foydalana olish texnikasining mavjudligi talab etiladi. Hozirgi kunda zamonaviy jihozlar bilan jihozlangan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida shunchaki ko'rgazmaga aylanib qolayotgan zamonaviy texnologiyalar hech kim uchun qiziq emas. Shunday ekan avvalo pedagoglarning o'z kasbiga bo'lgan mehrini, ishtiyoqini, o'z ustida ishslash, yangiliklarga intilish ko'nikmalarini shakllantirish g'oyasi yotadi. Bu bilan biz pedagog kadrlarni bilimsiz deyishdan yiroqdamiz. Faqat ulardan so'raladigan talab, o'z ustida ko'proq ishslash va zamonaviy texnologiyalar bilan tanishish hamda texnologiyalardan unumli foydalanishni talab etishdir.

Tarbiyachi ham bolalarga yetkazib berishi kerak bo'lgan bilimlami sifatlari, qiziqarli, yetib boradigan qilib mashg'ulotlami o'tkazishga va o'sib kelayotgan yoshlari o'rtasidan yaxshi mutaxassislarini yaratishni orzu qiladi. Pedagog tarbiyalagan bolalar o'z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda jamiyatga ko'plab yangiliklar kiritishi mumkin bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida markazlar faoliyatini yuqori saviyada tashkil etish va uning samaradorligini oshirish maqsadida tarbiyachi mashg'ulot uchun berilgan vaqtidan unumli foydalanishi, turli texnologiyalar, usul va metodlardan foydalanib turli mashg'ulotlarni o'tishi, tarbiyachi bu tajribalarni puxta o'zlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Faoliik markazlaridagi ta'lim jarayonida bolalarning o'zlarini tegishli rivojlanish markazini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar. Bolalarni mustaqil guruhlarda ishlashi, individuallashtirishda tarbiyachi shunday faoliyat turlarini o'ylab topadiki, unda barchaga birdek ko'rsatma berilsada, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holdaa o'zi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi. Individuallashtirish darajasini optimallashtirish mumkin.

Rivojlanish markazlari bolalarga o'zlarining shaxsiy ko'nikmalari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonini mustaqil individuallashtirish imkoniyatini beradi. Tarbiyachi-pedagoglar rivojlanish markazlarida bolalarning yordamchilari rolini o'ynaydilar, mashg'ulotlar olib boriladigan joyda imkoniyatlar kengligini ta'min etadilar va har bir bola individual rivojlanishi darajasini egallay olgan xolda faoliyat turlarini rejalashtiradilar. Har bir guruuhda 5 ta markazlar bo'lib, ularning har birida izlanish va o'yinlar uchun yetarli miqdordagi materiallar saqlanadi. Qurilish va konstruksiyalash markazida turli xil va shakldagi qurilish elementlari mavjud bo'lib, bolalar ulardan o'z fantaziyasiga tayangan xolda inshootlar bunyod etadilar: misol uchun ko'rgan tarixiy obidalari, uylar, garajlar, ferma va shu kabilar. Markazdagi mashg'ulotlar ijodiy qobiliyat, so'z orqali va so'zsiz muloqot, umumiylari va nozik harakatlanish, aqliy qobiliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Pedagoglarning vazifasi - bolalarning muloqotga kirishishga bo'lgan qiziquvchanligini rag'batlantiruvchi muhitni yaratish va bolalarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga qarab, o'z vaqtida kerakli sharoitlarni moslashtirgan hamda ularni kuzatishdan iborat. Individual yoki kichik guruhlarni uchun topshiriqlar ota-onalar bilan suhbatlashgandan so'ng, qaysidir ko'nikmalarga alohida e'tibor berish uchun ishlab chiqiladi. Yuqorida shart-sharoit haqida gapiryapmizu, ammo yaratilgan sharoitlardan unumli foydalanish haqida kamroq to'xtaldik. Ammo bizning oldimizga qo'ygan maqsadimiz faqat jihozlar emas, balki yaratilgan sharoit va jihozlardan unumli foydalana olish hamdir.

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON,2024

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qarori PQ-4312 08.05.2019
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. -T.: 2022 yil.
3. Sodiqova SH.A. Maktabgacha ta'lifda markazlar faoliyati va uslubiyoti. T.: 2022yil.
4. Azizzo'jayeva N. N. pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006.y
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Maktabgacha ta'lif tashkilotlari faoliyatini yanada ytakomillashtirish chora –tadbirlari to'g'risida" gi 2019 yil 13 maydagi 391-son qarori
6. "Pedagogika tarixi". Qo'llanma. T., "O'qituvchi" 1996 yil